



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEKISTONDA UMUMIY OVQATLANISH TIZIMI: AN’ANAVIYLIK, REJALAR VA AMALIYOT NATIJALARI (ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MISOLIDA)

Nasirov Bunyod Uralovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, dotsent

Annotatsiya

Maqolada muallif Rossiya imperiyasi va sovet hukumati davrida umumiy ovqatlanish tizimidagi o‘zgarishlar, sohaga xizmat ko‘rsatishning yangi turlarining kirib kelishi, rivojlanishi hamda bu o‘zgarishlar va ularga aholining munosabati xususida fikr yuritgan. Jumladan, XIX asr oxirida shahar va qishloqlarda choyxonalar bilan birgalikda, restoran, bufetlar, mehmonxonalar qoshida ovqatlanish maskanlarining tashkil etilishi, keyinchalik, sovet davrida fabrika-oshxona, tayyorlov, oshxonalar, uy oshxonalari, restoranlar, choyxonalar, kafe, tamaddixonalar va bufetlar faoliyati yuzasidan ma’lumotlar qayd etilgan. Soha rivojlantirish bo‘yicha rejalar belgilangan bo‘lsa-da, yillar mobaynida aholi turar joylari, turli o‘quv yurtlari va yirik tashkilotlarda umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyati bilan bog‘liq muammolar yechimiga yetarli e’tibor qaratilmagan.

Kalit so‘zlar: choyxona, oshxona, taom, restoran, bufet, umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish, sovet hokimiyati, soha, aholi.

СИСТЕМА ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ПЛАНЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРИОДА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ И СОВЕТСКОЙ ЭПОХИ)

Насиров Бунёд Уралович

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент

Аннотация

В статье автор рассматривает изменения в системе общественного питания в период Российской империи и советской власти, появление и развитие новых форм обслуживания, а также отношение населения к этим преобразованиям. В частности, освещается организация чайхан, ресторанов, буфетов и пунктов питания при гостиницах в городах и сельской местности в конце XIX века, а также деятельность фабрик-кухонь, столовых, домашних кухонь, ресторанов, чайхан, кафе, закусочных и буфетов в советский период. Несмотря на разработку различных планов по развитию данной сферы, в течение многих лет недостаточное внимание уделялось решению проблем, связанных с деятельностью предприятий общественного питания в жилых районах, учебных заведениях и крупных организациях. Кроме того, система общественного питания оценивается с исторической точки зрения как важный элемент повседневной жизни населения, культуры обслуживания и социальной инфраструктуры.

Ключевые слова: чайхана, столовая, пища, ресторан, буфет, общественное питание, сфера обслуживания, советская власть, отрасль, население.

THE PUBLIC CATERING SYSTEM IN UZBEKISTAN: TRADITIONS, PLANS, AND PRACTICAL OUTCOMES (BASED ON THE EXAMPLES OF THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET PERIODS)

Nasirov Bunyod Uralovich

Jizzakh Branch of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Associate Professor

Abstract

The article examines the changes in the public catering system during the periods of the Russian Empire and Soviet rule, the introduction and development of new forms of food service, and the public's attitude toward these transformations. In particular, it discusses the establishment of teahouses, restaurants, buffets, and catering facilities attached to hotels in urban and rural areas at the end of the nineteenth century, as well as the activities of factory kitchens, canteens, home kitchens, restaurants, teahouses, cafés, snack bars, and buffets during the Soviet era. Although various plans and programs were introduced to develop the sector, insufficient attention was paid over the years to solving problems related to the functioning of public catering institutions in residential areas, educational institutions, and large organizations. The article

also evaluates the role of the public catering system in everyday life, service culture, and the social infrastructure from a historical perspective.

Keywords: teahouse, canteen, food, restaurant, buffet, public catering, service sector, Soviet authority, industry, population.

Ijtimoiy hayotni xizmat ko'rsatish sohasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy-maishiy infratuzilmalar ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi bilan birga, kishilarning bo'sh vaqtdan unumli foydalanishiga ham o'z ulushini qo'shadi. Shuningdek, aholining turmushida bu sohaning muhim o'rni mavjud.

Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmalarning bir tarmog'i hisoblangan umumiy ovqatlanish tizimi [1] kishilar hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, unda ishning to'g'ri tashkil etilishi, xizmat ko'rsatish sifati, aholining ehtiyoj va takliflarining inobatga olinishi muassasa rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada dunyo mamlakatlarida aholining hayotiy faoliyatini ta'minlash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni davrda xorijiy davlatlar yalpi ichki mahsuloti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi yuqori bo'lib, jumladan, Monakoda — 95,1 foizni, Lyuksemburgda — 86,0 foizni, Maltada — 80,6 foizni, AQShda — 79,6 foizni, Kiprda — 78,3 foizni, Fransiya — 77,6 foizni, Belgiya — 76,1 foizni, Gretsiya — 75,7 foizni hamda Buyuk Britaniya — 74,5 foizni tashkil etmoqda [2].

O'zbekiston tarixida umumiy ovqatlanish muassasalari uzoq davrga borib taqaladi va ularning zamonaviy ko'rinishlari vujudga kelishida quyidagilarni e'tirof etish lozim. Bugungi kunda ham aholi ko'p tashrif buyuradigan choyxonalar qadimda rabotlar, bozorlar, guzarlar va mahallalardagi xushmanzara joylarga qurilgan bo'lib, ularda choy va nondan tashqari turli qand-qurslar, meva qoqilari sotilgan, taomlar ham tayyorlangan. Choyxonalar musofirlar va yo'lovchilar tunab qoladigan joy vazifasini ham bajargan [3].

Aytish joizki, aholining maishiy turmush sharoitini yaxshilashda o'zbek xalqining qadimdan sevimli, dardlashadigan va suhbat quradigan maskani bo'lgan choyxonalarning o'ziga xos o'rni bor. Binobarin, XIX asr oxirida shahar va qishloqlarda choyxonalar bilan birgalikda xizmat ko'rsatish tizimida o'zgarishlar sodir bo'lib, yangi ko'rinishdagi muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi.

Rossiya imperiyasi davrida aholi kundalik turmushidagi an'anaviy ovqatlanish maskanlariga yangi ko'rinishdagi bufetlar, mehmonxonalar (ovqatlanish maskanlari mavjud bo'lgan) hamda restoranlar kirib kela boshladi. Albatta, ularga mahalliy aholining murojaati nisbatan kam bo'lgan. Masalan, 1894-yilda Turkiston general-gubernatoriga Samarqanddan Konstantin Gorgaridze murojaat etib, mahalliy aholi uchun o'tkir ichimliklar sotadigan restoran qurish lozimligini, Yangi Buxoroda "Orisam" restorani mavjudligi va unga faqat badavlat kishilar tashrif buyura olishini e'tirof etadi [4]. Bizning fikrimizcha, bunga mahalliy aholining bunday maskanlarga odatlanmagani, ikkinchidan esa undagi yuqori narxlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shu davrdan boshlab joylarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavodlar qurish, omborlar tashkil etish hamda turli spirtli mahsulotlar bilan savdo qiluvchi ovqatlanish maskanlarini tashkil etishga e'tibor qaratilgan. Masalan, shu davrda Yangi Marg'ilon hududida 2 ta pivo, 1 ta aroq ishlab chiqarish zavodi, 1 tadan pivo va vino ombori, 1 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi maskan, 3 ta ichkilik uchun mo'ljallangan uy hamda 1 ta bufet tashkil etilgan bo'lsa, Qo'qonda 4 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi maskan, 1 ta bufet, Andijonda esa 5 ta rus uzum vinosi bilan savdo qiluvchi hamda 1 ta ichkilik sotuvchi maskan bo'lgan. Albatta, bu ko'rsatkichlar o'sha davrda Samarqand hududida, shuningdek, Jizzax va Kattaqo'rg'on hududlarida ham nisbatan kam bo'lsa-da mavjud edi [5]. Rus oziq-ovqat sanoatiga tegishli bufetlar va ichkilik bilan bog'liq maskanlar shu davrda shahar kesimida rus aholisiga nisbatan nechta to'g'ri kelishi ham tahlil qilingan [6]. Biroq mahalliy aholining turli oshxona va choyxonalarni rivojlantirish kabi masalalarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Arxiv fondining Toshkent shahri ruslar istiqomat qiladigan qismi politsiya boshqarmasiga tegishli yig'ma jildida 1904-yilga oid choyxonalar bo'yicha bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori nomiga general-leytenant Matsiyevskiy tomonidan murojaat yuborilgan. Unda Matsiyevskiy Janarboyevaga tegishli choyxonani yopishga yetarli asos topa olmayotganligini bayon etadi [7]. Bu holat o'z o'rnida shu davrda faoliyat ko'rsatib turgan choyxonani nima sababdan yopish bo'yicha topshiriq berilgani kabi savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, XIX asr oxiriga kelib O'rta Osiyoda "Rivera", "Parij", "Shimol" (Samarqand), "Regina", "Buffa", "Anona" (Toshkent) kabi restoranlar faoliyat ko'rsatib, ularda asosan yuqori tabaqa

vakillariga xizmat ko'rsatilgan [8].

XX asrning 30-yillarida qizil choyxonalar tashkil etilib, ularda turli mavzularda ma'ruzalar tashkil qilish, gazeta va jurnallarni o'qish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Ya'ni, sovet hokimiyati o'z g'oyalarini aholiga singdirishda ular uchun uzoq davrdan buyon an'anaviy bo'lgan choyxonalardan ustalik bilan foydalanishga harakat qilgan. Qizil choyxonalarning jadal sur'atlarda o'sishi natijasida 1937-yilda respublikada ularning soni 3437 tani tashkil etgan. Shu o'rinda Buxoro viloyatida ularning soni 700 ta bo'lgan. Buxoro viloyatidagi qizil choyxonalarda bir yil davomida 4176 ta ma'ruza va nutqlar o'qilgan. 1939-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistondagi qizil choyxonalar soni 4073 tani tashkil etgan [9].

Sovet hukumati yillarida aholi turar joylarida umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq yillar davomida ko'plab yirik tashkilotlar, o'quv yurtlari va qishloq hududlarida umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etish, rivojlantirish hamda mavjud muammolarni hal etishga yetarli e'tibor qaratilmagan.

1960-yillarda respublikaning bir qancha viloyatlarida tizimni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda umumiy ovqatlanish muassasalarining mavjud muammolarini bartaraf etish ishlariga mahalliy hukumat rahbarlarining e'tiborsizlik bilan yondashgani sohaga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Turli vazirliklar va yuqori idoralar tomonidan ham tarkibidagi quyi tarmoqlarda tizimni rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmagani oqibatida respublikadagi zavod va fabrikalardagi oshxonalarda bir o'ringa me'yor bo'yicha 6 kishi o'rniga 11 kishi to'g'ri kelgan [10].

Shuningdek, Buxoro, Qashqadaryo, Andijon, Samarqand viloyatlari hamda QQASSRdagi sanoat korxonalarida oshxonalardagi o'rindiqlar soni 1000 kishiga nisbatan me'yoridagidan 2–3 barobar kam bo'lgan [11].

1970-yilda O'zbekistonda davlat va kooperativ savdosining chakana savdo aylanmasi (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda) 1960-yilga nisbatan 4 marotabaga oshdi, umumiy ovqatlanish tizimining o'zi esa 2 martadan ortiq o'sdi, umumiy ovqatlanish korxonalari soni deyarli 2 barobarga ko'paydi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, aholini umumiy ovqatlanish korxonalari bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganib chiqilganda, o'sha davrda umumiy ovqatlanish korxonalarida 1000 nafar aholiga sovet davlatida 34 ta o'rin to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Ukrainada 34,5 tani, O'zbekistonda esa atigi 27 ta o'rinni tashkil etgan edi [12].

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlayotgan xodimlar uchun yetarli mehnat va yashash sharoitlari yaratilmaganligi, mehnat ta'tillarining o'z vaqtida berilmasligi, ish vaqti me'yorlariga amal qilinmasligi hamda shu kabi qator sabablar natijasida kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajada bo'lgan. Jumladan, Toshkent restoranlar trestida kadrlar qo'nimsizligi 21 foizni tashkil etgan, ishdan bo'shaganlarning 70 foizidan ortig'i o'z xohishiga ko'ra ishlash niyatlari yo'qligini ma'lum qilgan [13].

XX asrning 70-yillarida sohada bir qator sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1971–1975-yillarda respublikadagi shaharlarda umumiy ovqatlanish tizimi 45 foizga yoki 100 ming o'ringa oshdi. Shu jumladan, sanoat korxonalari, qurilishlar va transport tizimida 30 ming o'ringa, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida 4 ming o'ringa, umumta'lim maktablarida esa 70 ming o'ringa ko'paydi. Shuningdek, 1000 nafar ishlovchiga 160 o'rin, 1000 nafar talabaga 100 o'rin, 1000 nafar o'quvchiga esa 57 o'rin to'g'ri kelgan [14].

Biroq joylarda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli aholining umumiy ovqatlanish tizimiga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondirishning imkoni bo'lmagan [15].

Umuman olganda, XX asrning 20–70-yillarida O'zbekistonda sovet hukumati tomonidan umumiy ovqatlanish tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Rejalar ishlab chiqildi va ma'lum mablag'lar ajratildi. Biroq yillar davomida aholi turar joylari, turli o'quv yurtlari hamda yirik tashkilotlarda umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etish, rivojlantirish va mavjud muammolarini hal etishga yetarli e'tibor qaratilmadi. Bu esa o'z davrida aholining umumiy ovqatlanish muassasalariga bo'lgan ehtiyojida yaqqol namoyon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy ovqatlanish korxonalariga quyidagilar kiradi: fabrika-kuxnya, fabrika-tayyorlov joyi, oshxonalar (tayyorlov, tayyorlashgacha, tarqatuvchi va boshqalar), restoranlar, vagon-restoranlar, umumiy ko'rinishdagi kafelar, maxsus kafelar (yoshlarniki, bolalarniki, muzqaymoqli, qandolatchilik, kafe-avtomat), umumiy yemakxonalar, maxsus yemakxonalar (kabobli, kotletli, sosiskali, chuchvarali, somsali, osh, cheburekli, pirojkali, quymoqli, ponchikli, buterbrodli), chayxonalar, choy ichish joylari, barlar (pivoli, vinoli, kokteyl bari, kokteyl xolli, sutli), kafeteriy, bufetlar, kupe-bufetlar, qandolatchilik

magazidlari, yarim mahsulotlar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus sexlar, qandolatchilik, konditerlik va un mahsulotlari.

2. 20 stran mira s naibol'shej dolej sfery uslug v strukture VBP [Elektronnyj resurs]. — URL: infotables.ru

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — Elektron shakli.

4. O'z MA, I.1-fond, 29-ro'yxat, 1097-yig'ma jild, 4–4a-b varaqlar.

5. O'z MA, I.1-fond, 16-ro'yxat, 1939-yig'ma jild, 109-varaq.

6. O'z MA, I.1-fond, 16-ro'yxat, 1939-yig'ma jild, 109-varaq.

7. O'z MA, I.462-fond, 1-ro'yxat, 333-yig'ma jild, 16-varaq.

8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — Elektron shakli.

9. Бешимов Р. Победа культурной революции в кишлаках Узбекистана (1933–1941 годы): по материалам Бухарской и Самаркандской областей.

10. O'z MA, R.91-fond, 11-ro'yxat, 298-yig'ma jild, 59-varaq.

11. O'z MA, R.91-fond, 11-ro'yxat, 427-yig'ma jild, 3-varaq.

12. Шадиев Р.Х. Сфера обслуживания и уровень жизни населения. — Ташкент: Узбекистан, 1974. — С. 57.

13. O'z MA, R.91-fond, 11-ro'yxat, 532-yig'ma jild, 63-varaq.

14. O'z MA, R.91-fond, 11-ro'yxat, 1144-yig'ma jild, 2-varaq.

15. O'z MA, R.91-fond, 11-ro'yxat, 429-yig'ma jild, 29-varaq.